

**SOVETLAR DAVRIDA XIVA SHAHRINI
OBODONLASHTIRISH MASALALARI (1930-1950-
YILLAR MISOLIDA)**

*Madrimova Gulzira Shakhnazarovna, Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti*

**ISSUES OF IMPROVEMENT OF THE CITY OF
KHIVA IN THE SOVIET PERIOD (EXAMPLE OF
1930-1950)**

*Madrimova Gulzira Shakhnazarovna, Doctoral student of Urganch
State University*

**БЛАГОУСТРОЙСТВО ГОРОДА ХИВЫ В
СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (НА ПРИМЕРЕ
1930-1950- ГОДОВ)**

*Мадримова Гулзира Шахназаровна, докторант Ургенчского
государственного университета*



[https://orcid.org/0009-
0005-9616-8899](https://orcid.org/0009-0005-9616-8899)

e-mail:
[doktarantgulzira@gmail.
com](mailto:doktarantgulzira@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallifning Sovetlar davrida Xiva shahridagi obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish masalasida davlat mablag‘larining yo‘naltirilishi, shahar qiyofasidagi o‘zgarishlar, elektrostansiyaning qurilishi, shahar tozaligiga e’tiborning kuchayishi, vodopravod tizimining yo‘lga qo‘yilishidagi yutuq va kamchiliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xiva shahri, ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, davlat mablag‘i, shahar tozaligi, elektrostansiya, toza ichimlik suvi, vodopravod tizimi, asfaltlshtirish.

Abstract: This article analyzes the author’s achievements and shortcomings in the allocation of state funds for the improvement and landscaping of the city of Khiva during the Soviet era, changes in the appearance of the city, the construction of a power plant, increased attention to urban cleanliness, and the establishment of a water supply system.

Key words: Khiva city, landscaping, improvement, state funds, city cleanliness, power plant, clean drinking water, water supply system, asphaltiting.

Аннотация: В данной статье анализируются достижения и недостатки автора в распределении государственных средств на благоустройство и озеленение города Хивы в советское время, изменение облика города, строительство электростанции, усиление внимания к чистоте города, налаживание системы водоснабжения.

Ключевые слова: город Хива, озеленение, благоустройство, государственные средства, чистота города, электростанция, чистая питьевая вода, водопровод, асфальтирование.

KIRISH. Davlatchilik sivilizatsiyasi shaharlarning jadal rivojlanishi bilan belgilanadi. Shaharlar taraqqiyoti ming yillik tadrijiy rivojlanishning mahsuli hamda tarixning noyob durdonasi hisoblanadi. O‘lkamiz tarixida Xiva, Samarqand, Buxoro kabi uzoq tarixga ega o‘zligimiz va mentalitetimizni o‘zida mustahkamlagan shaharlar qad rostlagan. Shuningdek, xalqaro

YUNESKO tashkilot tomonidan e’tirof qilingan. Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Xiva shahri tarixini o‘rganish dolzarb mavzu hisoblanadi. “Fransiyada Xivani umrida loaqla bir borib ko‘rmagan fransuz fransuz emas, degan ibora bor”, deb fikr bildirgan Fransiya prezidenti Fransua Mitteran[4]. Haqiqatdan ham mo‘jizakor va maftunkor shahrimiz dunyo ahlini lol qoldirgan.

Xiva shahrining rivojlanish tarixida obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish borasidagi tadbirlar qadimiy shahar umrining uzayishiga va tarixiy qiymatini oshishiga xizmat qilgan. Ushbu jihatlarni tadqiq qilish, ayniqsa, sovetlar davridagi shaharni obodonlashtirish masalasini keng jamoatchilikka yetkazish maqolaning asosiy masalasi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, xonlik davrida ham shaharni obod qilish tizimli yo'lga qo'yilgan. Bunda asosan, hashar yo'li bilan qilingan. Masalan, Chitkar hovuz, Polvon hovuz, masjid va ko'prik qurishlar xudo yo'liga amalga oshirilgan[1].

METOD. Ushbu mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning bir nechta uslublari, jumladan, ma'lumotlarning tahlili, qiyosiy tahlil, sintez, shuningdek, qonunlar yaratilishining xronologik tahlili, xolisligi, realligi kabi prinsiplaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Tadqiqotlarda Xiva shahrining 1930-yillargacha tarixi o'r ganilgan. Shaharning 1930-yillardan keyingi holati manbalar asosida keng qamrovli o'rganish lozim. Ikkinchiji jahon urushidan oldin, ya'ni 1938-yildagi ahvolni qoniqarli deb bo'lmaydi. Xiva shahri mutasaddi tashkilot vakillarining befarqligidan shahar obodonchiligiga e'tibor berilmagan. Ko'chalarning chang-to'zonligi, shuningdek, shahar ichida yangidan qurilayotgan bozor ikki yildan beri yakuniga yetmaganligi, baliq bozori va meva bozorlaridagi xunuk holatlar bo'yicha e'tirozlar keltirilganligi shahar ijtimoiy hayotidagi vazifalar izchil yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatadi[3]. Bundan tashqari, Maksim Gorkiy nomidagi istirohat bog'ida dam olish uchun yetarli imkoniyatlar yo'qligi, dam olish o'rindiqlari yetarlichcha o'rnatilmagani haqidagi ma'lumotlar shu davr gazetalarida ham yoritilgan[7].

Xiva shahrining obodonlashirish masalasiga munosabat urushdan keyin ancha o'zgargan. Masalan, 1945-yilda elektr stansiyasi ishga tushirilib aholining 30% elektr bilan ta'minlangan[2]. Shuningdek, 1948-yil davlat budgetidan 395 ming so'm ajratilgan va undan foydalanish to'g'risida shahar Ijroiya komiteti qaror chiqargan. Qaror ijrosi mahalliy aholining mashaqqatli mehnati yordami bilan amalga oshirilgan. Jumladan, shu yili Xivalik mehnatkashlar shaharni obodonlashitirishda katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Stalin nomli ko'cha kengaytirilib, ikki atrofiga ariqlar qazilib, manazaralni

daraxtlar o'tqazilgan. Maksim Gorkiy nomli istirohat bog'i va xotin-qizlar bilim yurtiga boradigan yo'llarga tosh yotqizilgan. Shaharni ko'kalamzorlashtirish uchun qo'shimcha 20000 tup manzarali daraxtlar o'tqazilgan. Keksa yoshli nuroniyalar tomonidan istirohat bog'iga 7000 tup har xil daraxtlar o'tqazilgan. Istirohat bog'ida kutubxonalar yoshlar klubni ish boshlashi belgilangan. E'tiborli jihat, qariyalar choyxonasini yani Qizil choyxona faoliyatini boshlagan[5].

Shaharni obodonlashtirish yo'lidagi bir qator yutuqlar bilan birga kamchiklarga ham yo'l qo'yilgan. 1948-yil 7-iyunda obodonchilik ishlarini borishi yuzasidan yana bir qaror chiqarilgan. Bu qarorda ikkinchi chorak uchun qo'yilgan 205 ming so'mdan faqat 101 ming so'mning foydalanganligi ko'rsatilgan. Achinarli tomoni avgust oyida ham xuddi shunday qaror qabul qilingan, lekin bajarilmasdan qolib ketganligi shaharni obodonlashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmaganligini ko'rsatadi[8]. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, Xiva aholisini suv bilan ta'minlaydigan Ota hovuz qarovsizlik oqibatida iflos ko'lga aylangan. E'tiborli jihat, shu yil davlat budgetidan Ota hovuz va Bol hovuzni obod qilish uchun 51800 so'm mablag' ajratilgan bo'lishiga qarmasdan ish to'g'ri tashkil qilinmagan[9].

NATIJALAR. 1950-yillarda shahar qiyofasida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. 1954-yilda shahar obodonchiligi uchun 600 ming so'm mablag' ajratilgan. Shuningdek, aholining turmush darajasi yaxshilangan, ishchi va xizmatchilarining bir qanchasi yangi uylarni qurishgan[10]. Jumladan, Xivada 1954-yilda 2 qavatlari 10 yillik maktab binosi qurib bitkazilgan. Shahar univermagi binosi barpo qilinganligi shahar qiyofasida yangi ko'rinish kasb qilgan. Shuningdek, Lenin va Stalin ko'chalarini asfaltlash ishlari amalga oshirilgan.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun katta Ota hovuz atrofi sementlanib, zinapoyalar qurilgan. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida ariqlar ustiga 7ta ko'prik qurilganligi alohida ahamiyat kasb qiladi.

1955-yilda esa davlat mablag'idan obodonchilik ishlariga 410 ming so'm pul ajratilib, 4550 kv ko'cha asfalt qilinganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, ko'kalamzorlashtirish maqsadida ko'chalar va ariq bo'ylariga 15 ming tup daraxt ekilgan. Yutuqlar bilan kamchiliklarni ham ko'risj mumkin. Shu yili davlat tomonidan yangi uy-joy qurilish,

kapital ta'mirlash uchun ajratilgan 269 ming 44 so'mdan faqat 13 ming so'm puldan foydalanilgani shaharda yetarlicha ishlar amalga oshirilmaganligini ko'rsatadi[11].

1956-yilda Xiva shahrining tozalik tizimi yaxshi tashkil qilinmagan. Ko'cha maydonlarda axlat tashlash uchun qutilar qo'yilmagan[12]. E'tiborsizlik shaharning umumiy tabiiy muhitining buzilishiga olib kelgan. Bunday holat nafaqat mahalliy aholiga zararli, balki shaharga keladigan sayyoohlarning salbiy taassurotiga sabab bo'lган.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 1950-yillarning oxiriga kelib shahar aholisi vodoprovod suvi bilan ta'minlangan, ko'chalarning 60% asfalt qilingan[2].

XULOSA. Yuqoridagi ma'lumotlar Xiva shahri tarixida rivojlanish bir tekis bo'limganligini ko'rsatish bilan birga aholining turmush darajasi, shaharning umumiy qiyofasini o'rganishga xizmat qiladi. Shuningdek, Xiva shahri taraqqiyoti mahalliy aholining mashaqqatli mehnat mahsuli alohida ekanligini ko'rsatadi. 1950-yillardan keyin aholining turmush darajasi rivojlangani esa, shaharning umumiy qiyofasining ijobiy tomonga o'zgarishini ta'minlagan. Shu bilan birga shahar aholisining ma'naviy hayoti shaharning iqtisodiy taraqqiyoti bilan birlgilikda rivojlangan. Radiolashtirish, madaniyat uylari faolaiyatining faollashuvi, ta'limda ijobiy siljishlarni o'zida aks etgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Abdurasulov. Xiva. (Tarixiy-etnografik ocherk)-T.: O'zbekiston.1996.-26 b.

2. Suronli zamonlar. Xiva ming gumbaz shahri. Sharq nashriyoti.T-,1997 y.70-b.
3. S.Babajanov. Xivada shahar obodonchiligiga e'tibor bermaydilar. //Inqilob quyoshi. 1938-yil. 8-oktyabr. 4-bet. №232(3025).
4. M.Bekchonova. Boqiy shahar.//Xiva tongi. 2015-yil 20-oktabr. 3-bet №39(8420).
5. М.Жуманиёзов. 1-май шарафига// Хоразм хақиқати. 1948 йил 30 апрель. 3-бет.
6. П.Харитонов. Хива шахри нима учун обод бўлмаётир // Хоразм хақиқати. 1948 йил 17 октябрь. 4-бет.
7. Ж.Абдуллаев. Борлиқ имкониятлардан фойдаланиш керак. //Хоразм хақиқати. 1940 йил 4 август.
8. И.Васильев. Бажарилмаган қарорлар тўғрисида //Хоразм хақиқати. 1949 йил 12 январь. 4-бет.
9. Шаҳар ва район марказларини обод қиласийлик//Хоразм хақиқати.1949 йил 24 июнь. 4-бет.
10. В.Мурадов. Шаҳар маданий ва обод бўлмоқда // Хоразм хақиқати.1954 йил 27 декабрь. 4-бет.
11. П.Мурадова. Хива шахрини янада обод ва кўркам қиласиз. // Хоразм хақиқати. 1955 йил 18 июнь. 4-бет. №119(7524).
12. Т.Среда. Шаҳримиз озода бўлсин// Хоразм хақиқати. 1956 йил 30 июнь. 4-бет. №130(7791).
- 13.А.Исмоагилов. Кўплаб кўчат ўтқазилди. // Хоразм хақиқати. 1960 йил 7 май. 3-бет. №91(8783).

